

ИЖОД МАКТАБЛАРИДА ДАВЛАТ ВА HUQUQ ASOSLARI FANIDAN TO‘GARAK TASHKIL ETISH METODIKASI

Mamayev Qahramon Ravshanovich,
*Halima Xudoyberdiyeva nomidagi
ijod maktabi tarbiyachi-pedagogi,
davlat va huquq asoslari fani o‘qituvchisi
O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi a’lochisi
kaxamamaev1985@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijod maktablarida Davlat va huquq asoslari fanidan to‘garak tashkil etishning samarali metodikasi tahlil qilinadi. O‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda huquqiy bilimlarni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari yoritilgan. Shuningdek, to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etishda “Rolli o‘yinlar”, interaktiv metodidan foydalanishning ahamiyati asoslab berilgan.

Maqolada ijod maktablari o‘quvchilarining huquqiy ongini va huquqiy madaniyatini rivojlantirishda to‘garak mashg‘ulotlarining o‘rni ko‘rsatib o‘tilgan hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: davlat va huquq asoslari, to‘garak, ijod maktablari, huquqiy ta’lim, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, pedagogik metodika, interaktiv usullar, keys-stadi, debat texnologiyasi, innovatsion ta’lim.

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ КРУЖКА ПО ПРЕДМЕТУ «ОСНОВЫ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА» В ТВОРЧЕСКИХ ШКОЛАХ

Аннотация: В данной статье анализируется эффективная методика организации кружка по предмету «Основы государства и права» в творческих

школах. Освещаются современные подходы к формированию правовых знаний с учётом возрастных и психологических особенностей учащихся. Также обосновывается значимость использования интерактивных методов, таких как «ролевые игры» при организации кружковых занятий.

В статье показана роль кружковых занятий в развитии правового сознания и правовой культуры учащихся творческих школ, а также разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: основы государства и права, кружок, творческие школы, правовое образование, правовое сознание, правовая культура, педагогическая методика, интерактивные методы, кейс-стади, технология дебатов, инновационное обучение.

METHODOLOGY FOR ORGANIZING A CLUB IN THE SUBJECT “FUNDAMENTALS OF STATE AND LAW” IN CREATIVE SCHOOLS

Abstract: In this article, an effective methodology for organizing a club in the subject “Fundamentals of State and Law” in creative schools is analyzed. Modern approaches to the formation of legal knowledge are highlighted, taking into account the age and psychological characteristics of students. The importance of using interactive methods such as “role-playing games,” in organizing club activities is also substantiated.

The article demonstrates the role of club activities in the development of legal awareness and legal culture among students of creative schools, and also provides practical recommendations.

Key words: Fundamentals of State and Law, club, creative schools, legal education, legal awareness, legal culture, pedagogical methodology, interactive methods, case study, debate technology, innovative education.

Kirish (Introduction). Bugungi kunda ijod maktablarida o‘quvchilarning huquqiy ong va madaniyatini shakllantirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu ma'noda davlat va huquq asoslari fanini to'garak mashg'ulotlarida samarali o'qitishni tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Negaki, ijod maktablarida o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilganligini inobatga olgan holda huquqiy bilimlarni berishda interaktiv va innovatsion metodlardan foydalanish zaruriyati ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, to'garak mashg'ulotlari o'quvchilarning huquqiy bilimlarini chuqurlashtirish, ularning hayotiy vaziyatlarda huquqiy me'yorlarni qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Mavzu doirasida davlat va huquq asoslarini o'qitish va huquqiy ta'limni takomillashtirish masalalari bir qator mahalliy va xorijiy pedagoglar, tadqiqotchilar tomonidan ilmiy jihatdan o'rganilgan. Biroq yangidan tashkil etilgan ijod maktablarida davlat va huquq asoslari to'garagi faoliyatiga doir masalalari pedagogik metodik xususiyalari alohida tadqiq etilmagan.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Ushbu tadqiqotda ijod maktablarida Davlat va huquq asoslari fanidan to'garak tashkil etishning metodik jihatlarini o'rganish maqsadida nazariy tahlil usuli, kuzatish, suhbat va so'rovnoma, pedagogik tajriba usuli – interaktiv metodlar (rol o'yinlari) ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi.

Rolli o'yinlarni tashkil etish tartibi. Birinchi tayyorgarlik bosqichi amalga oshiriladi. Bunda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- mavzu va vaziyat tanlanadi (masalan: “sud jarayoni”, “maktab nizosi”);
- o'quvchilarga oldindan qisqa tushuntirish beriladi;
- rollar aniqlanadi (sudya, prokuror, advokat va boshqalar);
- har bir rol uchun **kartochka yo'riqnoma** tayyorlanadi (kim nima qiladi, maqsadi nima).

Kirish qismi (5-7 daqiqa) da o'qituvchi vaziyatni hayotiy misol bilan tushuntiradi. Qoidalar aytiladi: hamma rolga kiradi, haqiqiy huquqiy mantiq asosida gapiradi. Boshqalar fikrini to'xtatmaslik.

Rollarni taqsimlash (3-5 daqiqa) da o'quvchilar ixtiyoriy yoki o'qituvchi tomonidan tanlanadi. Har bir ishtirokchiga rol vazifasi beriladi.

Asosiy o'yin jarayoni (15-20 daqiqa) O'quvchilar o'z roliga kirib, vaziyatni "jonli" tarzda ijro etadi. Masalan: Sud jarayonida dalillar keltiriladi. Guvohlar gapiradi. Qaror chiqariladi.

Tahlil va muhokama (10 daqiqa) qismida o'qituvchi quyidagi savollar beradi:

- Qanday xatolar bo'ldi?
- Qaysi qaror adolatli edi?
- Qonun qanday qo'llanildi?
- O'quvchilar fikr bildiradi.

Xulosa (3-5 daqiqa) bo'limida o'qituvchi asosiy huquqiy tushunchalarni umumlashtiradi. Real hayot bilan bog'laydi. Eng faol ishtirokchilar rag'batlantiriladi. O'yin "ko'ngilochar" emas, ta'limiy maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi, har bir vaziyat real hayotga yaqin bo'lishi talab etiladi. O'quvchilarni erkin fikrlashga undang Yakunda huquqiy xulosa chiqarilishi zarur.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqot jarayonida ijod maktablarida davlat va huquq asoslari fanidan to'garak mashg'ulotlarini interaktiv metodlar asosida tashkil etish samaradorligi tahlil qilindi. Olib borilgan pedagogik kuzatuvlar va amaliy tajribalar natijasida o'quvchilarning huquqiy bilimlarni o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshgani aniqlandi. "Rolli o'yinlar", kabi interaktiv usuldan foydalanilgan guruhlarda o'quvchilarning faolligi an'anaviy dars shakllariga nisbatan yuqoriroq bo'ldi. O'quvchilar huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil fikr bildirish va asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirdi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tahlillar shuni ko'rsatdiki, to'garak mashg'ulotlari davomida o'quvchilarda so'rovnoma natijalariga ko'ra, o'quvchilarning aksariyati interaktiv metodlar asosida o'tilgan mashg'ulotlarni qiziqarli va tushunarli deb baholadi. O'qituvchilar esa ushbu metodlar o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilayotganini ta'kidladi. Shu ma'noda

ushbu fandan to‘garak mashg‘uloti tashkil etishda “Rolli o‘yinlar” metodikasidan foydalanish yuqori samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Huquqiy ta’lim metodikasi: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
4. Davlat va huquq asoslari: Umumiy o‘rta ta’lim uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2023.
5. Interaktiv ta’lim metodlari va ularni qo‘llash texnologiyalari. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.